



## O'ZBEK KINO SAN'ATIDA BOLALAR ADABIYOTI ASOSIDA YARATILGAN BADIY FILMLAR HAQIDA

**Nurmuxamedova Iroda Fatxulla qizi**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti*

*"Kino, televide niye va radio rejissyorligi" kafedrasi o'qituvchisi*  
+935427034

**Annatatsiya.** Bolalar adabiyoti asosida yaratilgan badiy filmlardagi qahramonlarning paydo bo'lishi, ularning tomoshabinga taqdimotida ijodkorlarning yo'ndashuvi haqidagi qarashlar.

**Аннотация.** Взгляды на героев в художественных фильмах, созданных по мотивам детской литературы, от создателей художественных фильмов и их представлении зрителю.

**Annotation.** Views on the characters in feature films based on children's literature from the creators of feature films and their presentation to the viewer.

**Kalit so`zlar:** Bolalar adabiyoti, film, g'oya, muallif, sarguzasht, asar, roman, rassom.

**Ключевые слова:** Детской литературе, фильм, идея, автор, приключение, произведение, роман, художник.

**Keywords:** Children's literature, film, idea, author, adventure, work, novel, artist.

Kino sintetik san'at, u o'ziga ko'plab san'at turlarini qamrab olgan. Filmning ishlab chiqarish jarayonida har xil soha vakillari: praduser, dramaturg, rejissyor, rassom, operator, bastakor, ovoz rejissyorlari, liboschi rassomlar, grim ustalari, montaj rejissyorlar, chiroq ustalari va filmining yuzi bo'lmish aktyorlar jamlamasidan tashkil topgan. Dunyoga kino san'atining kirib kelganiga yuz yildan oshib bormoqda. Bu vaqt ichida kino san'ati o'zida bir necha turlarga bo'linib kengaydi. Kinematografiyaning yosh vakili bo'lmish bolalar kinosi hozirda barcha mamalakatlarda yangicha dunyo qarashni shakillantirishi bilan muhimdir.

O'zbek kinosida bolalar uchun film yaratish an'anasi mavjud bo'lib, ana shu an'anining maxsuli sifatida yozuvchi G'afur G'ulomni "Shum bola" asarini keltirib o'tish joiz. "Shum bola" filmi G'afur G'ulomning shu nomli asari asosida yaratilgan. "Ko'chadan beri kelmaydigan, kunini do'stlari bilan bekorga o'tkazadigan, sho'x va quvnoq o'smir bola Qoravay onasidan dakki eshitgach, uydan qochib ketadi. U boshidan turli sarguzashtlarni kechiradi. Qoravoy qanday holatga tushmasin, o'zining topqirligi, ayyorligi va raqibining nozik tomonini topa bilish xususiyati bilan murakkab vaziyatlardan chiqib keta oladi. Yosh bo'lishiga qaramay, hayot qarama-qarshiliklarini yengishga intilishi, kulgili, lekin aslida ayanchli taqdiri tomoshabinni befarq qoldirmaydi."<sup>16</sup> "Shum bola" filmida Abduraim Abduvaxobov, Saidkarim Saidaripov, Hamza Umarov, Vohid Qodirov, Abdulxayr

<sup>16</sup> A.Ishoqov "Kinematografiya tarixi" Toshkent "Zilol buloq" nashriyoti. ISBN 978-9943-5888-1-5, 2019 y, B-96



Qosimov, Baxtiyor Ixtiyorov, Ergash Karimov va Rihsi Ibroximova kabi aktyorlar ishtirok etgan.

"Shum bola" romani va uning asosida yaratilgan filmni bir qator farqlarga ega:

- Syujet. Film syujetni batafsilroq ochib beradi va romanda etishtilmagan tafsilotlarni ichida mujassam. U kishloqdan bu qishloqqa sargardon bo‘lib yurgan kezlari, bir qarasa eshon boboning mushkulini oson qilaman deb xarom o‘layotgan sigirining o‘rniga eshakni bo‘g‘izlab qo‘yadi, bir qarasa boyning bog‘ida olma terib, haqqini ololmagach, uni aldab, uyini kuydiga, o‘g‘lini o‘ldiga chiqaradi.

- Tuyg‘ular. Film qahramonlarning his-tuyg‘ularini yanada chuqurroq va yorqinroq aks ettiradi, bolaning his-tuyg‘ulariga, uning uy sog‘inchiga va tajribalariga e’tibor qaratadi. Roman qahramonlarning mulohazalari va ichki muloqotiga ko‘proq e’tibor beradi.

- Iboralar. Filmda ba’zi iboralar ko‘proq ifoda ekran tasviriga mos kelish uchun o‘zgartirilgan va qo‘shilgan.

- Roman va film o‘rtasidagi yana bir farq shundaki, filmda kitobda mavjud bo‘lgan qahramonning ichki monologi yo‘q. Ushbu monolog o‘quvchiga qahramonning fikrlari va his-tuyg‘ularini, shuningdek uning boshqalar bilan munosabatlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Umuman olganda, film romanning moslashuvi bo‘lib, uning asosiy g‘oyasi va syujetini saqlab qoladi. Biroq, tafsilotlarni qo‘shish va qahramonlarning his-tuyg‘ulariga urg‘u berish orqali film voqeani yanada jonli va esda qolarli qiladi. O‘zbek adabiyotida ko‘plab yozuvchilarning durdona asarlari mavjud. Jumladan, Xudoyberdi To‘xtabayev o‘zbek bolalar yozuvchisi, jurnalist va pedagog. U "Umanbay va Davronbay sarguzashti"(1974), "Sariq devni minib" (1968), ["Sariq devning o‘limi"](#) (1973), "Yillar va yo‘llar"(1983), "Besh bolali yigitcha"(1976), "Kasoskorning oltin boshisi"(1981), „Shirin qovunlar mamlakati“ (1986), "Jannati odamlar"(1996) romanlarini yozgan.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyevning "Sariq devni minib" qissasi asosida. 2012-yilda rejissyor Sarvar Karimov tomonidan "Sehrli qalpoqcha" filmi ekranlashtirilgan. Film sujeti qissadan kino ssenariyga moslashtirilgan. Hoshimjon ismli dangasa bola, onasiga uy ishlarida yordam berishdan bosh tortar, singillariyu qo‘shni bolalarni hafa qilardi. Kunlardan bir kuni u barcha tilaklarni bajaradigan sehrli qalpoqcha topib oladi. Bu sehrli qalpoqcha yordamida olamga dong‘i ketish istagida Hoshimjon dunyo kezgani yo‘lga tushadi. U turli tuman sarguzaschlarni boshidan kechirgan bolakay nihoyat inson mehnatsiz hech nimaga erisha olmasligini tushunib yetadi.

Film 2013-yilda Moskvada o‘tkazilgan XV "Skazka" kinofestivalining sovrindori bo‘ldi. Film "Badiiy kino" toifasida "ertakdagagi hazil uchun" mukofotiga sazovor bo‘ldi, bosh rolni ijro etgan aktyor Bunyod Rahmatullayev esa "Eng yaxshi erkak roli"toifasida g‘olib deb topildi. 2014-yilda "Sehrli qalpoq (Sariq devni minib)" Mazkur film Xudoyberdi To‘xtaboyevning "Sariq devni minib" asari asosida bo‘lib, "Sehrli qalpoqcha" badiiy filmining mantiqiy davomidir. Filmda Hoshimjon ismli bolakayning sarguzaschlari haqida hikoya qilinadi. Hoshimjon o‘zining eng yaqin do‘siti bo‘lmish Sehrli qalpoqcha



yordamida sohta tabibga qarshi kurashib, uning barcha kirdikorlarini fosh qiladi.

O‘zbek milliy kino san’atida hamkorlikda olingan filmlar ham mavjud. “Hindistonning “Iglfilm” kinostudiysi bilan hamkorlikda suratga olingan “Ali bobo va qirq qaroqchi” (ertak film1980), “Sevgi afsonasi” (1984), “Ovchi” (1990), Nikaragua Milliy kinostudiysi bilan hamkorlikda yaratilgan “Ajdaho ovi”(1986) filmlari milliy madaniyatimiz va san’atimizni dunyoga keng targ‘ib etishga hozirgacha xizmat qilmoqda. Badiiy film tomoshabinni ajib bir dunyoga tushurib qo‘yish qobilyatiga ega, uning hozirgi haqiqatini vaqtincha bo‘lsa ham unitishga yordam beradigan ma’naviy unsur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov.B. Teatr... Kino... Televideniye..."LESSON PRESS" OOO izdatelstvo,2023 g, Toshkent-2022.
2. [Bazalgette Cary, In front of the children, 1995](#)
3. Letopis Rossiyskogo kino 1946—1965: Nauchnaya monografiya / otvet. red. [A. S. Deryabin](#). — M.: Kanon, Reabilitatsiya, 2010.
4. N.Karimova “Игровой кинематограф Узбекистана”, Ташкент:“San`at”-2016.
5. H. Akbarov “Kino san’ati tarixi Madaniyat va san’at yo’nalishidagi o’quv muassasalari uchun o’quv qo’llanma” Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashri – 2005
6. Абулкасимова Х.Рождение Узбекского кино.-Ташкент: 1994

